| К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ..... | 1324 |
| Мухамедова Севара Абдуллаевна | |



| | |
|---|------|
| MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA JARAYONI | 1336 |
| Norov Murodjon Maxmudovich | |
| O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR..... | 1342 |
| Maxkamov Otabek Muhammadjonovich | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI..... | 1351 |
| Egamberdiyev Jonibek O'ralovich | |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI | 1354 |
| Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich | |
| AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI | 1360 |
| Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li | |
| ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... | 1365 |
| Дадабоева Муштари Хамидиллаевна | |
| SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI | 1371 |
| Jalalova Dildora Jamolovna | |
| PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA..... | 1375 |
| Karshieva Marjona Alisher kizi | |
| TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 1380 |
| Qurbonova Malika Ahmad qizi | |
| SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI | 1384 |
| Uzoqov Farhod G'afforovich | |
| SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI.... | 1388 |
| Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich | |
| BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..... | 1392 |
| Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich | |
| BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI | 1396 |
| Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna | |
| RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI | 1402 |
| Muyassarzoda Fayziyeva | |
| MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI | 1408 |
| Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimova Yayra Atxamovna | |
| JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI..... | 1414 |
| Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich | |
| OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR..... | 1425 |
| Zakirova Oisha | |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ | 1431 |
| Сиддикова Гулноза Абдумаликовна | |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI..... | 1437 |
| Nuraliyeva B. | |



| | |
|---|------|
| TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI | 1443 |
| <i>Raximov Xasan Shukurjonovich</i> | |
| XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH | 1450 |
| <i>Kurolov Maksud Obitovich</i> | |
| TALIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH..... | 1460 |
| <i>Esanova Shohida</i> | |
| НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ | 1468 |
| <i>Хамзина Динара Рашатовна</i> | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI..... | 1473 |
| <i>Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich</i> | |
| QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH | 1482 |
| <i>Masharipova Sevara Bekturdi qizi</i> | |
| TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI | 1487 |
| <i>Marimova Indira Rasul qizi</i> | |
| DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELII..... | 1492 |
| <i>Murodov Orif Jumayevich</i> | |
| TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI | 1497 |
| <i>Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna</i> | |
| ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ | 1502 |
| <i>Киличева Ф.Б.</i> | |
| RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI VAHOLASH | 1507 |
| <i>Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li</i> | |
| ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН | 1511 |
| <i>Маденова Эльмира Нзаматдиновна</i> | |
| ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН | 1516 |
| <i>Мансуров Обид Зайнидинович</i> | |
| РЕКЛАМА XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR..... | 1522 |
| <i>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</i> | |
| TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI..... | 1528 |
| <i>Jalilov Jamshid G'anijonovich</i> | |
| SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI | 1534 |
| <i>To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich</i> | |
| YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... | 1540 |
| <i>Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li</i> | |
| THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION | 1545 |
| <i>Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna</i> | |
| MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI | 1549 |
| <i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> | |
| IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI..... | 1554 |
| <i>Xashimova Salima Nigmatullayevna</i> | |



| | |
|--|------|
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH..... | 1558 |
| B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich | |
| BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL | 1563 |
| Kurbanova Mohinur Xabib qizi | |
| KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI..... | 1568 |
| Mustafakulova Nodira Primovna | |
| BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI | 1572 |
| Qodirov Baxodir Qudratovich | |
| SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI | 1577 |
| Normuradov Nurbek Sunatilloevich | |
| ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ | 1581 |
| Шарахметов Шерзад Шаазимович | |
| O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI..... | 1588 |
| Qodirov Baxodir Tursunovich | |
| IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI..... | 1592 |
| Feruz Mirzoyeva Salimovna | |
| YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI..... | 1597 |
| Djalilov Sardor Sadilloevich | |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI | 1601 |
| Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich | |
| DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT | 1606 |
| Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi | |
| FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH | 1609 |
| Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li | |
| SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK..... | 1616 |
| Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich | |
| O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 1620 |
| Mardiyev Akrom Djumaboyevich | |
| BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI | 1627 |
| S.J. Sultanov | |
| TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI | 1633 |
| Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich | |
| BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI | 1639 |
| Xazratkulov Niyoz Namazbayevich | |
| STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS | 1644 |
| Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev | |
| AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI | 1648 |
| Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li | |
| TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI | 1652 |
| Mahmudova Chinora Anvar qizi | |
| XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI | 1657 |
| Nizamov Xusniddin Fazliddinovich | |



| | |
|---|------|
| SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)..... | 1663 |
| Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li | |
| MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI..... | 1670 |
| Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich | |
| TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR..... | 1674 |
| O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li | |
| СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ..... | 1678 |
| Бекбаева Феруза Бахтиеровна | |
| AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI..... | 1684 |
| Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI | 1690 |
| Radjabov Umurzoq Ablakulovich | |
| АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ | 1695 |
| Тугалов Бобур Қаршибой угли | |
| DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI..... | 1699 |
| Tangriyev Abdullo Tovashovich | |
| HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR..... | 1703 |
| Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi | |
| HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI | 1709 |
| G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li | |
| СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА..... | 1716 |
| Юлчиев Ойбек Улуғбек ўгли | |
| TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA HORIJY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI..... | 1723 |
| Umarov Abdulquddus Abdilxatovich | |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH..... | 1731 |
| Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi | |
| O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RESURSLAR VA MANBALAR..... | 1737 |
| Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna | |
| ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI..... | 1743 |
| Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna | |
| KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI..... | 1748 |
| Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li | |
| DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY | 1754 |
| Nazarova Munavvar Soatmurod qizi | |
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI | 1761 |
| Xamroyeva Kumush Alisherovna | |
| QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI..... | 1768 |
| G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi | |
| TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI | 1772 |
| Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li | |
| TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI..... | 1775 |
| Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi | |
| O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI | 1781 |
| Yusufova Laylo G'ayrat qizi | |



| | |
|--|------|
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI..... | 1788 |
| Xujamuratov Abbos Mardonovich | |
| PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI..... | 1792 |
| Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna | |
| TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI | 1797 |
| Xujakulova Odina Valijonovna | |
| DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI..... | 1805 |
| Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li | |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI..... | 1810 |
| Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna | |
| DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN | 1817 |
| Sadinova Maqsuda Azamjonovna | |
| O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI | 1824 |
| Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li | |
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 1832 |
| Djurayev Laziz Tursunboyevich | |
| TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI..... | 1836 |
| Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich | |
| TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI | 1844 |
| Mo'minova Mavjuda Sharifovna | |
| МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА..... | 1849 |
| Бозорова Озода Рахимовна | |
| EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI..... | 1854 |
| To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi | |
| ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI | 1859 |
| Tulyaganova Aziza | |
| MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI | 1864 |
| Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich | |
| O'ZBEKISTONDAGI KLASTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA | 1870 |
| Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich | |
| ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ | 1875 |
| Алиева Сусанна | |
| PUL-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI | 1881 |
| A.A. Ismailov | |
| ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI | 1887 |
| Shirinova G.X. | |
| XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..... | 1893 |
| Karshiyeva Charos Mamasoliyevna | |
| KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017-2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI | 1900 |
| Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich, Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna, Turg'anbayeva Ramiza Tolibayevna | |
| ГЛОБАЛЬНЫЕ И ЛОКАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ БАНКОВСКИХ УСЛУГ | 1907 |
| Махмаджанов Мухаммадали Музаффарович | |
| YO'LOVCHI TRANSPORT XIZMATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI | 1912 |
| Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Aktamov Abduvali Abdug'ani o'g'li | |
| BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZ (2014-2030-YILLAR) | 1917 |
| A.F. Ergasheva | |



| | |
|---|------|
| RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI..... | 1930 |
| Amonov Mirzohid Tuymuratovich | |
| OLIY TA'LIM TIZIMIDA XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR..... | 1937 |
| Begmatova Ziyoda Zaxidjon qizi | |
| RISKNI SUG'URTALASH ORQALI KORXONA FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH..... | 1942 |
| Maxmudov Shoxruxbek Asror o'g'li | |
| GLOBAL STANDARDS AND PRACTICES IN MEDICAL TOURISM: AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CURRENT TRENDS, CHALLENGES, AND REGULATORY FRAMEWORKS..... | 1947 |
| Adilova Diyora Ulugbekovna | |
| МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ АКВАКУЛЬТУРНЫМ СЕКТОРОМ НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ И ТЕХНОЛОГИЙ ОПТИМИЗАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ | 1952 |
| Мырзатаев Саламат Муратбаевич, Аскарлов Бахтияр Мамытович | |
| MINTAQAVIY SUG'URTA BOZORINING MINTAQANING IJTIMOY-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI | 1958 |
| Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li | |
| BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI DARAJASI VA FINTECH PLATFORMALARINING ROLI | 1963 |
| Abdullayeva Dilfuza Atajan qizi | |



BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI DARAJASI VA FINTECH PLATFORMALARINING ROLI

Abdullayeva Dilfuza Atajan qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya akademiyasi
Moliya yo'nalishi magistratura bosqichi tinglovchisi

Email: abdilfuz02@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda bank xizmatlarining raqamlashtirilishi darajasini va FinTech platformalarining (mobil to'lovlar, onlayn kreditlash, neobanklar, blokcheyn integratsiyasi) rolini tahlil qiladi. Tadqiqot 2023–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar (Central Bank of the Republic of Uzbekistan, stat.uz, bankir.uz) hamda xalqaro tajribalar (UPI Hindiston, Pix Braziliya) asosida olib borilgan. Adabiyotlar sharhida mahalliy va xalqaro olimlar yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Metodologiyada deskriptiv-statistik, komparativ va normativ-huquqiy usullar qo'llanilgan. Tahlil natijalari O'zbekistonda tezkor to'lovlar tizimining (IPS) o'sishi, FinTech ekotizimining rivojlanishida mobil to'lovlar va onlayn kreditlashning alohida ahamiyati hamda blokcheyn texnologiyalarini integratsiya qilish bo'yicha istiqbollarni ko'rsatgan. Xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, O'zbekistonda raqamli bank xizmatlari bo'yicha potentsial yuqori bo'lishiga qaramay, litsenziyalash va regulyatsiya mexanizmlarini yanada mustahkamlash zarurati aniqlangan. Maqola banklar, FinTech subyektlari va regulyatorlar uchun strategik tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, bank xizmatlari, FinTech platformalari, mobil to'lovlar, onlayn kreditlash, neobanklar, blokcheyn integratsiyasi.

Abstract. This article examines the level of digitalisation of banking services in Uzbekistan and the role of FinTech platforms (mobile payments, online lending, neobanks, blockchain integration). The study is based on official statistics from 2023–2025 (Central Bank of the Republic of Uzbekistan, stat.uz, bankir.uz) and international benchmarks (UPI in India, Pix in Brazil). The literature review covers both domestic and international scholarly perspectives. The methodological approach comprises descriptive-statistical, comparative and regulatory-legal analyses. Findings indicate a noteworthy expansion of the Instant Payment System (IPS) in Uzbekistan, the significant contribution of mobile payments and online lending to the FinTech ecosystem, and potential directions for blockchain integration. When compared internationally, the study reveals the need for stronger licensing and regulatory frameworks in Uzbekistan. The article offers strategic recommendations for banks, FinTech actors, and regulators.

Key words: digitalisation, banking services, FinTech platforms, mobile payments, online lending, neobanks, blockchain integration.

Аннотация. В статье анализируется степень цифровизации банковских услуг в Узбекистане и роль платформ FinTech (мобильные платежи, онлайн-кредитование, необанки, интеграция блокчейн-технологий). Исследование охватывает данные за 2023–2025 гг. из официальных источников (Центральный банк Узбекистана, stat.uz, bankir.uz) и международный опыт (UPI Индия, Pix Бразилия). В обзоре литературы рассматриваются подходы отечественных и зарубежных исследователей. Методология включает дескриптивно-статистический, сравнительный и нормативно-правовой анализ. Результаты показывают значительный рост системы быстрых платежей (IPS) в Узбекистане, высокое значение мобильных платежей и онлайн-кредитования в развитии экосистемы FinTech, а также перспективы интеграции блокчейн-решений. В сравнении с международной практикой выявляется необходимость усиления механизмов лицензирования и регулирования в Узбекистане. Статья содержит стратегические рекомендации для банков, FinTech-компаний и регуляторов.

Ключевые слова: цифровизация, банковские услуги, FinTech платформы, мобильные платежи, онлайн-кредитование, необанки, интеграция блокчейн.



KIRISH

Bugungi kunda bank tizimining rivojlanishini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyoda har bir mamlakat o'z moliyaviy xizmatlarini qulay, tezkor va xavfsiz qilish uchun turli raqamli yechimlardan foydalanmoqda. Shular qatorida O'zbekiston ham so'nggi yillarda bank xizmatlarini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Agar ilgari mijozlar bankka borib navbat kutishgan bo'lsa, hozirda ko'pchilik operatsiyalar — to'lov, pul o'tkazmasi, kredit olish yoki depozit ochish — mobil ilova yoki internet orqali bajarilmoqda. Bu o'zgarishlarning markazida esa FinTech platformalari turibdi. Ular banklar faoliyatini nafaqat soddalashtirgan, balki butun moliyaviy tizimni yangi bosqichga olib chiqqan.

O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Tezkor to'lovlar tizimi (IPS) orqali 47 milliondan ortiq operatsiya amalga oshirilgan, ularning umumiy summasi 900 trillion so'mdan oshgan. Bu naqd pulsiz to'lovlar hajmining sezilarli oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, HUMO va UZCARD tizimlarining to'liq integratsiyasi natijasida kartali to'lovlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Hindistondagi UPI yoki Braziliyadagi Pix kabi tizimlar raqamli to'lovlarni ommalashtirishda muhim o'rin tutgan. Ularning muvaffaqiyati FinTech platformalarining moliyaviy xizmatlarni ommaga yetkazishdagi rolini yaqqol namoyon etadi. Shu jihatdan O'zbekiston ham raqamli to'lovlar bozorida faol islohotlarni davom ettirmoqda.

Mazkur maqolada bank xizmatlarining raqamlashtirilishi darajasi, FinTech platformalarining bu jarayondagi o'rni va ularning bank sektorining samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanish holatini aniqlash, xalqaro tajriba bilan solishtirish hamda mavjud imkoniyatlar va muammolarni ko'rsatishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda bank xizmatlarining raqamlashtirilishi masalasi dunyo miqyosida ilmiy izlanishlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar moliyaviy sohada xizmat ko'rsatish jarayonlarini tezlashtiruvchi, xarajatlarni kamaytiruvchi va mijozlar uchun qulayliklar yaratadigan muhim omil sifatida qaralmoqda. O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda bank tizimida raqamli yechimlarning keng joriy etilishi kuzatilmoqda. Bu borada bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bank xizmatlarining raqamlashtirilish jarayoni, FinTech platformalarining roli hamda ularning iqtisodiyotga ta'sirini turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilgan.

Mahalliy olimlar orasida bu mavzuga bag'ishlangan izlanishlar ichida "The Evolution of Digital Banking in Uzbekistan: Trends and Challenges" nomli ilmiy maqola alohida e'tiborga molik. Ushbu ishda O'zbekistonda mobil banking, elektron to'lov tizimlari va FinTech kompaniyalarining rivojlanish jarayoni yoritilgan bo'lib, mualliflar mamlakat bank sektori so'nggi yillarda texnologik o'zgarishlar ta'sirida sezilarli transformatsiyaga uchraganini qayd etadilar. Shuningdek, "Issues of Digitization of the Banking and Financial System in the Integration of the Republic of Uzbekistan into the World Economy" nomli ishda bank va moliya tizimining raqamli o'zgarishlar davridagi holati, mavjud imkoniyatlar hamda muammolar tahlil qilingan. Mahalliy mualliflar raqamli texnologiyalarni joriy etish O'zbekiston iqtisodiyotining jahon moliyaviy tizimiga integratsiyasini jadallashtirayotganini ta'kidlashadi.

Xorijiy adabiyotlarda esa raqamli bank xizmatlari va FinTech platformalarining moliyaviy inklyuziya hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri chuqurroq tahlil qilingan. Masalan, S. Agarwal va hamkorlari tomonidan yozilgan "The Real Impact of FinTech: Evidence from Mobile Payment Adoption" nomli tadqiqotda mobil to'lovlar naqd pulli operatsiyalarni qisqartirishi, xarajatlarni kamaytirishi hamda savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikni oshirishini dalillar orqali asoslab berilgan. D. Ha va boshqalar tomonidan tayyorlangan "Financial Inclusion and Fintech: A State-of-the-Art Systematic Review" nomli maqolada esa FinTech texnologiyalarining moliyaviy inklyuziya jarayonlarini tezlashtirishdagi o'rni tizimli yondashuv asosida o'rganilgan.

Mualliflar FinTech rivojlanishining uch asosiy yo'nalishini — yangi moliyaviy xizmatlarning paydo bo'lishi, bozor tuzilmasidagi o'zgarishlar va manfaatdor tomonlarning rolini — aniqlab bergan. Shu bilan birga, N. Wei tomonidan 2025-yilda chop etilgan "Analysis of Mobile Fintech Adoption Based on Perceived Value and Risk Theories" tadqiqotida foydalanuvchilar tomonidan mobil to'lov xizmatlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar — foyda va xavfning subyektiv bahosi — asosida tahlil amalga oshirilgan.

FinTech platformalarining bank ekotizimidagi o'rni ham turli segmentlarda ko'rib chiqilgan. Masalan, Karsen (2019) tomonidan yozilgan "Technological Factors of Mobile Payment: A Systematic Literature Review" ishida mobil to'lov tizimlarining texnologik, ijtimoiy va inson omillariga asoslangan tahlil berilgan. O'zbekistonda esa "Digital in the Bank System of Uzbekistan Financial Services" nomli maqolada raqamli xizmatlarning bank faoliyatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, Z. Ziyadullayevning "Prospects for the Development of Digital Banks



in Uzbekistan” asarida neobanklar rivojining istiqbollari, FinTech integratsiyasi va raqamli bank modelining imkoniyatlari tahlil qilingan.

Xorijiy tadqiqotlar ichida esa Durigan Junior va hamkorlarining “IT Enabling Factors in a New Industry Design: Open Banking and Digital Economy” nomli ishi Open Banking, DLT va blokcheyn texnologiyalarining moliyaviy sektorni transformatsiya qilishdagi omillarini o’rganishga bag’ishlangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, FinTech platformalari bank xizmatlari sifatini oshirish, raqamli to’lovlarni ommalashtirish va mijozlarga xizmat ko’rsatish tezligini oshirishda muhim rol o’ynaydi. Biroq mavjud tadqiqotlar ichida aynan O’zbekiston sharoitida FinTech integratsiyasining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholagan ilmiy ishlar hali kam. Shuningdek, raqamli xizmatlar va moliyaviy inklyuziya o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni empirik tahlil qiluvchi, shuningdek, regulyator siyosati va kiberxavfsizlik masalalarini chuqur o’rgangan tadqiqotlar soni yetarli emas. Shu sababli ushbu mavzuni yanada kengroq o’rganish, O’zbekiston bank sektorida raqamlashtirish darajasini xalqaro tajriba bilan solishtirish va FinTech platformalarining real iqtisodiy samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlari va FinTech platformalarining iqtisodiyotga ta’sirini o’rganishda amaliy va nazariy yondashuvlar birlashtirilgan. Tadqiqotda asosan deskriptiv-statistik hamda taqqoslama (komparativ) tahlil usullaridan foydalanilgan. Deskriptiv yondashuv orqali 2023–2025-yillarga oid O’zbekiston Markaziy banki (cbu.uz), Davlat statistika qo’mitasi (stat.uz) hamda bankir.uz portalida e’lon qilingan rasmiy ma’lumotlar asosida bank xizmatlarining raqamlashtirilish darajasi baholangan. Shuningdek, HUMO va UZCARD tizimlari bo’yicha to’lov hajmlari, Tezkor to’lovlar tizimi (IPS) orqali o’tkazilgan operatsiyalar soni va qiymati, masofaviy bank xizmatlari ko’rsatkichlari tahlil qilingan. Komparativ yondashuv esa O’zbekiston tajribasini xalqaro misollar — Hindistonning UPI va Braziliyaning Pix tizimlari — bilan taqqoslash orqali raqamli moliyaviy infratuzilma rivojlanishining umumiy tendensiyalarini aniqlashga xizmat qilgan. Ma’lumotlar tahlilida xalqaro manbalar sifatida BIS CPMI, IMF Working Papers va SpringerOpen Journal of Financial Innovation kabi nufuzli ilmiy bazalardan foydalanilgan. Bundan tashqari, normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida O’zbekiston Respublikasining “To’lovlar va to’lov tizimlari to’g’risida”gi Qonuni (ZRU-578, 2019-yil, 2024-yilgi o’zgartirishlar bilan) hamda Markaziy bankning tegishli qarorlari o’rganilib, FinTech subyektlarining faoliyatini tartibga soluvchi me’yorlar tahlil qilingan. Tadqiqotning ilmiy natijalari statistik ma’lumotlar, xalqaro tajriba va huquqiy asoslarning o’zaro bog’liqligini aniqlashga, shuningdek, O’zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiyaning asosiy omillarini belgilashga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo’limda avvalo O’zbekistonda bank xizmatlarining raqamlashtirilish darajasi so’nggi yillarda qanday o’zgarayotgani, keyin FinTech segmentlari (mobil to’lovlar, onlayn kreditlash, neobanklar, blokcheyn integratsiyasi) bank tizimiga qanday ta’sir ko’rsatayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro taqqoslash asosida natijalar qisqacha ko’rib chiqiladi.

O’zbekistonda internetga ulanish darajasi va mobil internet tezligi oshayotganini e’tiborga olish kerak: 2024-yilning boshida mamlakatda internet foydalanuvchilari 29,52 million kishini, ya’ni aholi bilan solishtirganda taxminan 83,3 foizni tashkil etgan. Bu raqam bank xizmatlari, mobil ilovalar va onlayn platformalarga kirishni osonlashtiradigan muhitni yaratmoqda.

Markaziy bankning “Indicators of Payment System” bo’limida 2023-yil dekabr holatidagi to’lov tizimi ko’rsatkichlari e’lon qilingan.¹ Bu ko’rsatkichlar orasida masofaviy bank xizmatlari (remote banking), POS-terminal soni, bank kartalari va tezkor to’lovlar (Instant Payment System – IPS) kabi infratuzilma elementlari bor. Masalan, 2024-yilga borib bank kartalari va POS terminalarining soni ortgani, to’lovlar hajmning oshgani ko’zga tashlanmoqda.² Misol uchun, “Unlocking the Benefits of Digital Payments: Insights from Uzbekistan” hisobotida mobil va onlayn to’lovlarni amalga oshirayotgan shaxslar hamda mikro-hamda kichik biznes egalari bu yechimlar orqali operatsiyalarining deyarli yarmini raqamli usulda amalga oshirayotganini bildirganlar³.


Shu bilan birga, FinTech bozoriga oid KPMG hisobotida 2023-yil 31-dekabr holatidagi ma’lumotlar keltirilgan; bu hisobotda POS financing (bank to’lovlari, chipta bozorlari), BNPL (Buy Now Pay Later) va e-commerce bozorining raqamli tomoni tahlil qilingan.

Umuman olganda, natijalar shuni ko’rsatmoqda: O’zbekistonda bank xizmatlarining raqamli shaklda ko’rsatilishi sezilarli darajada o’smoqda, lekin infratuzilma va xizmat ko’rsatish kengligi bo’yicha hali xalqaro standartlardan orqada bo’lishi mumkin (1-rasm).

1 <https://cbu.uz/en/statistics/paysystem>

2 <https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJCBLT>

3 <https://usa.visa.com/dam/VCOM/regional/na/us/about-visa/documents/insights-from-uzbekistan-en.pdf>




1-rasm. Naqd va POS-terminal to'lovlari O'zbekistonda (AQSh dollari millionida)

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda 2021–2023-yillar davomida naqd va POS-terminal to'lovlari hajmi barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatgan. Xususan, naqd to'lovlari hajmi 2021-yildagi 23,7 milliard dollardan 2023-yilda 35,3 milliard dollarga yetgan. Shu davrda POS-terminal orqali to'lovlari hajmi esa 10,6 milliard dollardan 21,6 milliard dollarga oshgan. Bu jarayon naqd puldan elektron to'lov tizimlariga bosqichma-bosqich o'tish, aholi orasida raqamli to'lov infratuzilmasiga ishonchning ortishi va bank xizmatlarining raqamlashtirilishi bilan izohlanadi (2-rasm).



2-rasm. Chakana savdo korxonalarini soni

Diagrammadan ko'rinadiki, 2019–2022-yillar davomida O'zbekistonda chakana savdo korxonalarini soni izchil o'sib borgan. 2019-yilda 151,8 mingta bo'lgan korxonalar soni 2022-yilga kelib 194 mingdan oshgan. O'sish sur'ati har yili o'rtacha 8–10 foizni tashkil etgan. Bu holat mamlakatda tadbirkorlik muhiti yaxshilanganini, iste'mol bozorining kengaygani va xususiy sektor faolligining oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli savdo platformalari va franchayzing tarmog'ining rivojlanishi ham chakana savdo subyektlari sonining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan (3-rasm).



3-rasm. Kredit hajmi (mln USD)

Diagrammada 2020–2023-yillar oralig'ida kredit hajmining keskin o'sishi yaqqol ko'rinadi. 2020-yilda 753 million AQSh dollarini tashkil etgan kredit hajmi 2023-yilga kelib 3,4 milliard dollarga yetgan. Bu uch yil ichida qariyb 4,5 barobarga o'sishni anglatadi. Bunday o'sish moliya bozorining faollashgani, bank tizimida kreditlash mexanizmlarining kengaygani hamda tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan moliyaviy ko'mak hajmining oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning raqamli sektorlarga yo'naltirilgan investitsion faoliyati ham kredit portfelining kengayishiga sabab bo'lgan.

FinTech segmentlarining roli:

Mobil to'lovlar. Raqamli to'lov usullari va bank xizmatlarini mobil ilovalarga ko'chirish jarayoni O'zbekistonda muhim omil hisoblanadi. Hisobotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lov yechimlariga o'tgan shaxslar va korxonalar qo'yilgan resurslarni vaqt va xarajat jihatidan tejamoqda.

Onlayn kreditlash va BNPL. KPMG hisobotida O'zbekistonda BNPL va POS-kredit bozorining rivojlanayotganligi, bu segment orqali banklar va to'lov operatorlarining raqamli xizmatlar ekotizimiga faol kirib kelayotgani ta'kidlangan.

Neobanklar. Mahalliy bozorda raqamli bank va mobil ilova asosida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini kengaytirmoqda. Masalan, TBC Uzbekistan ekotizimi 19,7 million foydalanuvchiga erishgani va neobanking kategoriyasida xalqaro reytingga kiritilgani haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Blokcheyn integratsiyasi. O'zbekiston qonunchiligi to'lov xizmatlari sohasida kriptoaktivlar bilan operatsiyalarni alohida tartibga solgan. Shu bilan birga, xalqaro tajribada blokcheyn va DLT (Distributed Ledger Technology) orqali tokenlashtirilgan to'lovlar hamda transchegaraviy hisob-kitoblar mexanizmlari sinovdan o'tayapti. Masalan, mBridge loyihasi bunga yaqqol misoldir. Shu bois, O'zbekistonda blokcheyn asosida bank xizmatlarini keng joriy etish uchun huquqiy va infratuzilmaviy tayyorgarlikni oshirish zarur.

Ushbu segmentlar bank tizimiga quyidagi ta'sirlarni ko'rsatmoqda: tezkorlikni oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, xizmat ko'rsatish uchun yangi kanallar ochadi, yangi raqobatchilar — FinTech subyektlarini — shakllantiradi. Shu bilan birga, xavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va raqamli savodsizlik kabi muammolar hali ham mavjud.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni sezilarli darajada o'sib bormoqda hamda FinTech platformalari bu jarayonda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mobil to'lovlar, onlayn kreditlash va neobanklar qonuniy hamda infratuzilmaviy tayyorgarlik bilan uyg'unlashgan holda rivojlansa, bu bank tizimining raqamli iqtisodiyot bilan integratsiyasini yanada mustahkamlaydi. Biroq, rivojlangan davlatlar tajribasi bilan solishtirganda, O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar va FinTech infratuzilmasining imkoniyatlari hali to'liq ochildi. Shu sababli, huquqiy bazani takomillashtirish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va raqamli savodxonlikni oshirish yo'nalishlari dolzarbdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bank xizmatlarining raqamlashtirilishi jarayoni so'nggi yillarda sezilarli darajada tezlashgan. Tezkor to'lovlar tizimi (IPS), HUMO va UZCARD integratsiyasi,



mobil banking hamda onlayn kreditlash xizmatlarining kengayishi naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirmoqda. FinTech platformalari bu jarayonda asosiy drayver sifatida ishtirok etib, bank xizmatlarini soddalashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytiradi. Shu bilan birga, sohada kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va tartibga solish mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurati mavjud. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ochiq API standartlari, barqaror regulyator siyosati va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimi raqamli moliyaviy ekotizimni muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim shartlaridir. Shu asosda FinTech va banklar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, kiberxavfsizlik choralari mustahkamlash, raqamli xizmatlarni tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish hamda aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish O'zbekiston bank tizimining barqaror raqamli transformatsiyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan (CBU). (2025). Indicators of the Payment System. Rasmiy statistik portal: <https://cbu.uz>
2. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics (Stat.uz). (2024). Digital Economy Indicators. <https://stat.uz>
3. KPMG Uzbekistan. (2024). FinTech Uzbekistan: Payments, POS Financing & BNPL Market Review. <https://assets.kpmg.com>
4. USA Visa Inc. (2024). Unlocking the Benefits of Digital Payments: Insights from Uzbekistan. <https://usa.visa.com>
5. Datareportal. (2024). Digital 2024: Uzbekistan – Global Digital Overview. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>
6. Agarwal, S., Chua, Y., & Zhang, W. (2025). The Real Impact of FinTech: Evidence from Mobile Payment Adoption. Management Science, INFORMS. <https://pubsonline.informs.org>
7. Ha, D., Trinh, H., & Lee, J. (2025). Financial Inclusion and FinTech: A State-of-the-Art Systematic Review. Journal of Financial Innovation, SpringerOpen. <https://jfin-swufe.springeropen.com>
8. Wei, N. (2025). Analysis of Mobile FinTech Adoption Based on Perceived Value and Risk Theories. Humanities and Social Sciences Communications, Nature Portfolio. <https://www.nature.com/articles/s41599-025-05142-x>
9. Karzen, L. (2019). Technological Factors of Mobile Payment: A Systematic Literature Review. Procedia Computer Science, Elsevier. <https://www.sciencedirect.com>
10. Ziyadullayev, Z. (2024). Prospects for the Development of Digital Banks in Uzbekistan. World of Science: Journal of Modern Research, No. 2. <https://wos.academiascience.org>
11. BIS CPMI. (2025). And So We Pay: More Digital and Faster, with Cash Still in Play. Bank for International Settlements Report. <https://www.bis.org>
12. IMF. (2024). Central Bank Digital Currencies and Cross-border Payments: Opportunities and Risks. IMF Working Paper, Washington, D.C. <https://www.imf.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
